



## XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024-yil 5-avgust

VI-78-99-4-0-K/24

Qashqadaryo viloyati

**Viloyatda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini hamda ommaviy oferta bo'yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summalarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-sonli farmoni 8-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 27-iyundagi 01-02/2198-sonli va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 28-iyundagi 01-20-10/05-38/1709-sonli xatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 27-iyundagi 01-02/2198-sonli va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 28-iyundagi 01-20-10/05-38/1709-sonli xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida (Qarshi shahridan tashqari) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini hamda ommaviy oferta bo'yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summalari **1-ilovaga** muvofiq hamda Qarshi shahrida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini hamda ommaviy ofertada bo'yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summalari **2-ilovaga** muvofiq belgilansin.

3. Viloyatda mazkur qaror kuchga kirgan kundan boshlab, barcha sanitar tozalash korxonalari tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. Qarshi shahar hududidagi yuridik va jismoniy shaxslar uchun xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 29-fevraldagi VI-71-32-4-0-K/24-sonli qarorida ko‘rsatilgan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish, poligonlariga joylashtirish xizmatlari bo‘yicha yangi ta‘rif asosida hisob kitob ishlari amalga oshiriladi.

5. Ushbu qaror “Qashqadaryo” gazetasida e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman qabul qilingan kundan e‘tiboran o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov va viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AZIMOV MUROTJON  
BERDIALIYEVICH

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining  
2024-yil 5-avgustdagi  
VI-78-99-4-0-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida (Qarshi shahridan tashqari) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini hamda ommaviy oferta bo'yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summalari**

T/r	Qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladigan obyektlar	Hisob birlik	Bir hisob birlik uchun bir kunda hosil bo'ladigan maishiy chiqindi miqdori, kg	1 m <sup>3</sup> chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to'lov, so'm	Maishiy chiqindining hajmga nisbatan og'irligi, kg/m <sup>3</sup>	1 kg maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to'lov, so'm	Bir hisob birlik uchun chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summasi, so'm
1	Ma'muriy va boshqa davlat muassasalari (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va b.)	1 ta xodim	0,220	76 000,0	445,0	170,8	1 127,3
2	Mehmonxona, umumiy yotoqxonalar, dala hovli va b.	1 ta o'rin	0,212				1 086,3
3	Maktabgacha ta'lim muassasalari (bolalar bog'chasi, yasli va b.)	1 ta o'rin	0,102				435,5
4	Maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqa o'quv	1 ta o'quvchi, talaba	0,067				286,1

	muassasalari						
5	Poliklinika	1 ta tashrif buyuruvchi	0,082				350,1
6	Shifoxona, sanatoriya, pansionat, davolash- profiliktika muassasalari va b.	1 ta koyka-o'rin	0,583				2 987,3
7	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, oziq-ovqat do'konlari, yarmarkalar, xo'jalik tovarlari do'konlari, savda pavilionlari, kioskalar, savdo chodirlari va b.	1 m <sup>2</sup> savdo maydoni uchun	0,062				317,7
8	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va b.	umumiy maydonning 1m <sup>2</sup> qismida	0,033				169,1
9	Umumiy avtoturargohlar, avtoyuvish joylari, yonilg'i quyish shahobchalari, shaxsiy avtoturargohlar va b.	1 ta avto o'rin	1,345				6 891,8

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining  
2024-yil 5-avgustdagi  
VI-78-99-4-0-K/24 -son qaroriga  
2-ilova

**Qarshi shahrida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to'plash me'yorlarini hamda ommaviy oferta bo'yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summalari**

T/r	Qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladigan obyektlar	Hisob birlik	Bir hisob birlik uchun bir kunda hosil bo'ladigan maishiy chiqindi miqdori, kg	1 m <sup>3</sup> chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to'lov, so'm	Maishiy chiqindining hajmga nisbatan og'irligi, kg/m <sup>3</sup>	1 kg maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to'lov, so'm	Bir hisob birlik uchun chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to'lov summasi, so'm
A	B	V	G	D	E	J=D/E	Z=G/1000*30*J
1	Ma'muriy va boshqa davlat muassasalari (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va b.)	1 ta xodim	0,220	89 600	445	201,3	1 328,6
2	Mehmonxona, umumiy yotoqxona, dala hovli va b.	1 ta o'rin	0,212				1 280,3
3	Maktabgacha ta'lim muassasalari (bolalar bog'chasi, yasli va b.)	1 ta o'rin	0,102				616, 0
4	Maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqa o'quv muassasalari	1 ta o'quvchi, student	0,067				404, 6
5	Poliklinika	1 ta tashrif buyuruvchi	0,082				495, 2
6	Shifoxona, sanatoriya, pansionat, davolash-profiliktika muassasalari va b.	1 ta koyka-o'rin	0,583				3 520,7
7	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, oziq-ovqat do'konlari, yarmarkalar, xo'jalik tovarlari do'konlari, savda pavilionlari, kiosklar, savdo chodirlari va b.	1 m <sup>2</sup> savdo maydoni uchun	0,062				374, 4

8	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va b.	umumiy maydonning 1m <sup>2</sup> qismida	0,033				199, 3
9	Umumiy avtoturargohlar, avtoyuvish joylari, yonilg'i quyish shahobchalari, shaxsiy avtoturargohlar va b.	1 ta avto o'rin	1,345				8 122,5